

TURKISTONNING ROSSIYA TOMONIDAN XOM ASHYO MANBAYI VA TAYYOR MAHSULOTLAR BOZORIGA AYLANTIRILISHI

Izzatillaxon Maxmutaliyevich Xaydarov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrası professori, tarix fanlari doktori (DSc).

Azimov Shoxruh

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

“Sharq mamlakatlari tarixi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

E-mail: izzatillakhon@gmail.com, shoxruxbekazimov21@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20075879>

Annotatsiya. Mazkur mavzu Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida uning iqtisodiy jihatdan xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozori sifatida shakllantirilishi jarayonini yoritishga bag‘ishlangan. Unda mustamlakachilik siyosatining asosiy yo‘nalishlari, jumladan, paxtachilikni majburiy kengaytirish, mahalliy hunarmandchilik va sanoatning inqirozga uchrashi, hamda o‘lkaning Rossiya sanoati uchun xom ashyo yetkazib beruvchi hududga aylantirilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, temir yo‘llar qurilishi, savdo aloqalarining biryoqlama rivojlanishi va mahalliy bozorlarning Rossiya mahsulotlariga qaram bo‘lib qolishi kabi omillar ochib beriladi. Natijada Turkiston iqtisodiyotining mustaqilligi cheklanib, u imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi mustamlaka hududga aylangani ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Nikolay I, Amerika navi, “Ships, Stuken”, “Yaroslavl katta manufaktura”, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Metropoliya, Rossiya imperiyasi.

Annotation. This topic examines the process by which Turkestan, following its conquest by the Russian Empire, was transformed into a source of raw materials and a market for finished goods. It analyzes the main directions of colonial policy, including the forced expansion of cotton production, the decline of local crafts and industry, and the region’s transformation into a supplier of raw materials for Russian industry. The study also highlights factors such as the construction of railways, the one-sided development of trade relations, and the growing dependence of local markets on Russian manufactured goods. As a result, the economic independence of Turkestan was limited, and the region became a colony serving the interests of the empire.

Keywords: Nicholas I, American cotton variety, “Ships, Stuken”, “Yaroslavl Large Manufactory”, Ubaydullakhoja Asadullakhojayev, Metropolis, Russian Empire.

Аннотация. Данная тема посвящена изучению процесса превращения Туркестана, после его завоевания Российской империей, в источник сырья и рынок сбыта готовой продукции. Анализируются основные направления колониальной политики, включая принудительное расширение хлопководства, упадок местного ремесла и промышленности, а также превращение региона в поставщика сырья для российской промышленности. Также раскрываются такие факторы, как строительство железных дорог, одностороннее развитие торговых связей и зависимость местных рынков от российских товаров. В результате экономическая самостоятельность Туркестана была ограничена, и он превратился в колонию, обслуживающую интересы империи.

Ключевые слова: Николай I, американский сорт хлопка, «Шинс, Стукен», «Ярославская большая мануфактура», Убайдуллаходжа Асадуллаходжаев, метрополия, Российская империя.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinib, uning mustamlakasiga aylantirildi. Bu jarayon nafaqat siyosiy hukmronlik o'rnatish, balki o'lkaning iqtisodiy tizimini imperiya manfaatlariga mos ravishda qayta shakllantirish bilan ham kechdi. Natijada Turkiston asta-sekin Rossiya sanoati uchun xom ashyo yetkazib beruvchi hudud va tayyor mahsulotlar uchun keng bozor vazifasini bajaruvchi mintaqaga aylantirildi.

Mustamlakachilik siyosatining asosiy maqsadi o'lkaning tabiiy boyliklaridan maksimal darajada foydalanish va uni markaziy hududlar iqtisodiyotiga qaram qilish edi. Shu sababli paxtachilik kengaytirildi, an'anaviy qishloq xo'jaligi tizimi o'zgartirildi hamda mahalliy hunarmandchilik va ishlab chiqarish tarmoqlari inqirozga yuz tutdi. Temir yo'llar qurilishi, yangi savdo yo'llarining ochilishi esa tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytirgandek ko'rinsada, aslida ularning asosiy vazifasi xom ashyoni tashib ketish va tayyor mahsulotlarni olib kirishdan iborat edi.

Shu tariqa Turkiston iqtisodiyoti biryoqlama rivojlanishga yo'naltirilib, uning ichki imkoniyatlari to'liq ishga solinmadi. Bu esa o'lkaning uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mazkur mavzuni o'rganish orqali Turkistonning mustamlaka davridagi iqtisodiy holati, uning sabab va oqibatlarini chuqurroq anglash mumkin.

Adabiyotlar sharxi. Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P. va Usmonov Q. muallifligidagi "Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida" asarida Turkistonning bosib olinishi, uning iqtisodiy jihatdan imperiya manfaatlariga bo'ysundirilishi hamda xom ashyo bazasiga aylantirilish jarayoni keng yoritilgan. Asarda paxtachilikning sun'iy ravishda rivojlantirilishi va sanoat korxonalarining mustamlaka ehtiyojlariga moslashtirilishi tahlil qilinadi¹. Sh. G'afforovning "Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar" asarida esa mustamlakachilik davrida amalga oshirilgan migratsiya siyosati, rus aholining ko'chirib keltirilishi va uning iqtisodiy hamda ijtimoiy oqibatlari haqida ma'lumotlar beriladi. Bu jarayon o'lkaning iqtisodiy tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan².

N. Jo'rayevning "Tarix falsafasi" asarida tarixiy jarayonlarga falsafiy yondashuv asosida mustamlakachilikning umumiy qonuniyatlari va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi.

Ushbu asar Turkiston iqtisodiy qaramligining nazariy asoslarini tushunishda yordam beradi³. Q. Usmonovning "O'zbekiston tarixi" darsligida esa Turkistonning Rossiya imperiyasi tarkibidagi iqtisodiy holati tizimli tarzda yoritilib, uning xom ashyo yetkazib beruvchi hududga aylanishi, savdo munosabatlarining biryoqlama rivojlanishi hamda sanoatning mustamlaka manfaatlariga bo'ysundirilishi batafsil bayon etiladi⁴.

¹ Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B.466

² G'afforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar. – Toshkent: Fan, 2006.- B.80

³ Jo'rayev N. Tarix falsafasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.- B.35

⁴ Usmonov Q. O'zbekiston tarixi: Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006.-B.205

H. Ziyoyevning “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari)” asari Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakachilik siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy oqibatlarini chuqur yoritib beruvchi muhim ilmiy manbalardan biridir. Mazkur asarda Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi manfaatlariga bo‘ysundirilishi, xususan, uning xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozori sifatida shakllantirilish jarayoni ham batafsil tahlil qilingan ⁵.

Natijalar. O‘rta Osiyoning arzon xom ashyo manbai va rus sanoat mollari sotiladigan qulay bozor bo‘lishini 1826 yildayoq general-mayor Verigin imperator Nikolay I (1825–1856)ga yo‘llagan taqdimnomasida bayon qilgan edi. Verigin Rossiyada ishlab chiqarilayotgan mollar mamlakat ichkarisida ham zo‘r-bazo‘r sotilayotgani va sifati past bo‘lgani uchun Yevropa bozorlarida sira raqobatga dosh berolmasligini ko‘rsatib, O‘rta Osiyo bu jihatdan rus sanoat mollari sotiladigan qulay bozorga aylanishi mumkinligini ta’kidlagan edi. Bu fikrni senator graf K.K. Palen rivojlantirib shunday degan edi: “Turkistonni istilo qilishning siyosiy sabablarini hisobga olmagan taqdirda ham bu o‘lka Rossiya tomonidan bosib olinishi dastlabki kunlaridanoq Rossiya uchun ikki jihatdan qiziqish uyg‘otgan edi:

1. Moliyaviy siyosat jihatidan davlat daromadi manbai va ichki ishlab chiqarish mahsulotlari uchun yangi bozor.

2. Mustamlakachilik siyosati nuqtai nazaridan markaziy guberniyalardagi ortiqcha aholini ko‘chirish uchun yangi hudud sifatida diqqatga loyiq edi”⁶.

Imperiya yuqori siyosiy doiralarning nufuzli vakili senator graf K.K. Palen o‘lkaning metropoliyaga to‘laydigan soliqlari miqdorini aniq bilgan holda ularni yanada oshirish rejasini ham ishlab chiqqan edi. Bu reja izchillik bilan amalga oshirilgan. Agar XIX asr oxirida yer solig‘i 4 million so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 1914-yilga kelib u 75 foizga ko‘paydi. Rossiyaning Turkistondan oladigan daromadi 300 foizga oshdi va 1916-yilga kelib 38 329 ming so‘mni tashkil qildi.

Imperiyaning Turkiston xom ashyosidan oladigan foydasining aniq miqdorini hech kim bilmagan va u faqat metropoliya burjuaziyasigagina ma’lum edi. Rossiya to‘qimachilik sanoati mahsulotlari qiymati 1900-yildan 1913 yilgacha 150 foiz oshganidan kelgan foyda ham shu rus kapitalistlarining cho‘ntagiga tushgan va uning hisobini ham hech kim bilmaydi.

Rossiya Turkistonni qisqa muddatda o‘z sanoati uchun xom ashyo manbaiga aylantirdi.

Agar 1885-yilda paxta maydoni 41,4 ming tanobni tashkil qilgan bo‘lsa, 1915-yilga kelib u 541,9 ming tanobga yetdi, ya’ni 13 barobar o‘sdi. O‘lka Rossiyaning asosiy paxta bazasiga aylandi. Bu haqda Turkiston jadidlarining yetakchilaridan Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev 1917-yil iyul oyida Qozonda o‘tgan 2-Butunrossiya musulmonlar qurultoyida shunday degan edi: “Shu kungacha Turkiston rus kapitalistlari uchun govmish sigir bo‘lib kelmoqda. Bugunda Turkiston Rossiyaga paxta yetkazuvchidir. Hanozgacha to‘xtamayotgan urush tufayli paxtaga ehtiyoj tobora ortib bormoqda, chunki u porox tayyorlashda kerakdir. Agar urushgacha bo‘lgan davrda Amerika paxtasining 1 pudi Rossiyaga 18 so‘mdan tushgan bo‘lsa, hozirda barcha mollarga narx-navoning

⁵ Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998. – B.480

⁶ Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B.466

3 barobar oshganiga qaramay, 1 pud Turkiston paxtasi Rossiya tomonidan 7 soʻmdan 10 soʻmgacha sotib olinmoqda, holbuki, 1 pudning bahosi hozirda 20 soʻmni tashkil qilishi lozim.

Demak, Turkiston paxtakorlari har pud paxtadan 10-12 soʻm zarar koʻrishmoqda. Bundan shunday xulosa chiqadiki, agar Turkistonda yiliga 10–12 million pud paxta yetishtirilsa, u holda bizning paxtakorlar tomonidan ishlab topilgan 100 million soʻm har yili rus kapitalistlari choʻntagiga tushmoqda”⁷.

Metropoliyaning iqtisodiy siyosati Turkistonni xom ashyo bazasiga aylantirish, uni rus mollari sotiladigan bozor sifatida tutib turish va tabiiy boyliklarini markazga tashib ketishga qaratilgan edi. Bu siyosatdan dvoryan-pomeshchiklar sinfidan tashqari, tobora rivojlanib va kuchga kirib borayotgan rus burjuaziyasi, ayniqsa toʻqimachilik sanoatining egalari manfaatdor edilar. Turkiston moʻmay daromad manbai sifatida ham chor Rossiyasining xazinasini boyitib borayotgan edi. Bu daromadlar 1867-1896-yillarda 4 barobarga koʻpaydi, aholidan olinadigan soliqlar 1889-1893-yillarda 40 foizga oshdi. 1869-1896-yillar davomida imperiya xazinasini oʻlkadan 158 million soʻm daromad oldi.

Turkistonning boyliklarini talashda imperiya markazini mustamlaka bilan tutashtiruvchi temir yoʻl mustamlakachilarga qulay keladi. Kaspiyorti, Sibir va Orenburg temir yoʻllari Rossiya imperiyasining Yevropa va Osiyo qismini oʻzaro birlashtirib, oʻlkalarni imperiyaning mol almashinuv jarayoniga jalb etdi. Metropoliyadagi kapitalistik munosabatlarning rivoji mustamlakalarni ham oʻz domiga tortdi. Turkiston oʻlkasi ham bu jarayonga jalb etilib, unda ham markaz manfaatlariga mos kelgan kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi. Oʻlkaning birgina Fargʻona viloyatida XX asr boshida 157 paxta tozalash zavodi boʻlib, ular mahalliy, rus va chet el kapitalistlariga qarashli edi. Turkistonning Samarqand, Sirdaryo va Fargʻona kabi uch viloyatida 1867-1900-yillar mobaynida 170 sanoat korxonasi ochilgan boʻlsa, 10 yil davomida (1900-1910) yana 220 ta, 4 yil ichida (1910-1914) esa 180 korxonasi ishga tushirilgan⁸.

Oʻlka fabrika-zavod sanoatining asosini ham xuddi paxta tozalash korxonalari tashkil etgani tasodifiy emas, albatta. Chunki metropoliyaning sanoat sohasidagi siyosatini rus burjuaziyasi belgilardi, unga esa oʻlkaning paxtasi birinchi navbatda zarur edi. Knyaz Masalskiyning taʼbiricha, paxtachilikni har tomonlama rivojlantirish rus toʻqimachilik sanoati uchun “yaqin kelajakda hayot-mamot masalasiga aylanadi”. General-gubernatorning yozishicha, Turkistonning imperiyaga koʻrsatadigan buyuk iqtisodiy xizmati ham ana shunda edi. Rus toʻqimachilik sanoati Turkiston paxtachiligining rivoji tufayli jahon bozorida mustahkam marrani egalladi. 1900-yilda Turkiston paxtasi rus sanoati ehtiyojining 25 foizini tashkil qilib, bu raqam yil sayin oshib bordi va Birinchi jahon urushi arafasida 50 foizga yetdi. Imperiya gazlama sanoatining gurkirab oʻsishi ana shu paxta tufayli edi. 1889-1916-yillar orasida Amerika navi ekiladigan Turkiston oʻlkasi paxta maydonlari 7 barobar kengayganining boisi ham shunda edi. Birgina Qoʻqonning oʻzida 1900-yilda 22 ta paxta tozalash zavodi ishlagan. Arzon xom ashyo asosida ishlovchi yogʻ, vino, pivo, kolbasa zavodlari, oʻlka yer osti boyliklarini oʻzlashtiruvchi togʻ-kon korxonalari paxta tozalash zavodlaridan keyingi oʻrinda turgan.

⁷ Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B.466

⁸ Gʻafforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga koʻchirilganlar. – Toshkent: Fan, 2006 – B.205

1884-yildan rus sanoatchilari “Amerika” navli paxtani o‘lkada katta maydonlarda ekishdan so‘ng imperiya to‘qimachilik sanoati korchalonlarining ishtahasi ochilib ketgan edi. 1889-yilda bunday nav 50 ming, 1895-yilda 100 ming tanob maydonga ekildi. 1901-yilga kelib esa o‘lkada 186 326 tanob yerning 174 026 tanobi rus sanoati ehtiyoji uchun mo‘ljallangan Amerika navli paxtaga tegishli edi. Rus ishbilarmolari va chet el firmalarining maxsus paxta plantatsiyalari ham shiddat bilan o‘z maydonini kengaytirib bordi. G. Belyakov, N. Raevskiy, S. Tarsin kabi plantatorlar Amerika navli paxtani Turkistonda keng tarqatish ishining tashabbuskorlari va boshlovchilari bo‘lishdi. Eng katta plantatsiya Katta Yaroslavl manufakturasiga tegishli edi (2750 tanob), keyingisi esa rus kelgindilarining Andreev xutori (Andijon uezdi) bo‘lib, u 700 tanob maydonni egallagan edi⁹.

XX asr boshlarida paxtachilik Turkiston sanoati va qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 40 foizini tashkil etgan bo‘lsa, don – 37 foiz, boshqa ekinlar esa 1,2 foizni tashkil qilgan. Paxtachilik imperiyaning chet ellarga sarflaydigan 70 million oltin pulini tejashga yordam bergani ham to‘qimachilik, gazlama sanoati gurkirab o‘shishiga turtki berdi¹⁰.

Rus mustamlakachilari Turkistondan 1914-1916-yillar mobaynida 59 million pud paxta, 8,5 million pud paxta yog‘i, 950 ming pud pilla, 2925 ming pud teri, 300 ming pud go‘sh, 229 ming pud sovun, 474 ming pud baliq olib ketdilar.

Turkiston o‘lkasi imperiyaning xom ashyo manbai bo‘lishidan tashqari u Rossiyaning Yevropa bozorlarida raqobatga dosh bera olmaydigan o‘tmass matohlarining sotiladigan qulay bozoriga ham aylantirildi. XX asr boshlarida Turkistonga keltirilayotgan temir, mis, chinni idishlar, gazlama va boshqa mahsulotlar miqdori 8 marta ko‘paygan. Xususan, birgina Farg‘onaga Moskvadan – 605412, Irbitdan – 5000, Nijniy Novgoroddan – 71233, Orenburgdan – 23910, Lozdan – 33600 rubllik mollar keltirilgan.

1895-yilning bir o‘zida Rossiyadan Turkiston o‘lkasining Farg‘ona viloyatiga 6010005 rubllik rus mollari keltirilgan. Metropoliyadan 1914-yilga kelib bir yilning o‘zida Turkistonga 243,6 million rubllik mol keltirilib sotilgani ham o‘lkaning rus tovarlari uchun qulay bozorga aylanganini yaqqol ko‘rsatadi. Mutaxassislar hisob-kitobiga ko‘ra, Rossiyadan keladigan mollarning 40 foizini gazlama, 15 foizini oziq-ovqat, 11 foizini metallni qayta ishlash, 7 foizini yog‘ochni qayta ishlovchi, 6 foizini kimyo sanoati mahsulotlari tashkil qilgan.

Rus firmalari va shirkatlari mollarning turlari bo‘yicha Turkiston bozorida o‘z monopoliyalarini o‘rnatib olishgan edi. Xususan, choy savdosini Shvetsov, Sinitsin, Lushnikov firmalari egallab olgan edilar. Bu firmalar 1902-yilda 26222 pud, 1903 yilda esa 26327 pud choyni sotishgan. Chinni buyumlar savdosi esa Kuznetsov va Gardner shirkati monopoliyasida edi. “Vladimir Alekseev”, “Birodarlar Kamenskiylar”, “Baron A. Knop”, “Birodarlar Shlyusberg” kabi savdo uylari, “Ships, Stuken”, “Yaroslavl katta manufaktura” shirkatlari, Moskva savdo-sanoat shirkati ham Turkiston bozorida hukmron mavqeni egallagan edilar¹¹.

Rus kapitalistlari o‘z manfaatlarini o‘ylab qayta ishlash sanoatini o‘stirishni istamaganlar va asosiy kapitallarini savdo-sotiq muomalasi doirasiga sarfladilar.

⁹ Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B.466

¹⁰ G‘afforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko‘chirilganlar. – Toshkent: Fan, 2006.- B.198

¹¹ G‘afforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko‘chirilganlar. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 205.

1913-yildan 1915-yilgacha Moskva va Sankt-Peterburgning firma va shirkatlari o'lka xo'jaligiga sarflagan 313 million so'm mablag'ning 60 foizi kredit tarmog'iga to'g'ri kelgan, Turkistondagi xususiy tijorat banklari ikki katta korchalon guruhni: Moskva va Peterburg banklarini tashkil qilib, o'lka iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynagan. Muntazam o'tkazib kelingan iqtisodiy zo'ravonlikning oqibatlaridan rasmiy idoralar tashvishga tushgani haqida ma'lumotlar ko'p. Xususan, taniqli mutaxassislardan N.P. Verxovskiy chorizmning Turkistonni xonavayron qiluvchi iqtisodiy siyosatini tanqid qilib, 1909-yilda bunday deb yozgan edi: "Bunday ijtimoiy-iqtisodiy evolyutsiyaning borishi o'lkani butkul xonavayron qilibgina qolmay, barcha ruslardan yotsirashga olib keladi. Xonavayron bo'lgan aholining iqtisodiy noroziligini kuchaytirib, hukumatga va ruslarga qarshi tashviqot uchun qulay zamin yaratadigan nufozni vujudga keltiradi".

1916-yil 4-6-mart kunlarida bo'lib o'tgan Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati majlisida paxtachilik bilimdoni hisoblangan S. Ponyatovskiy Rossiyadan keltiriladigan gazlama, temir, mis buyumlar, choy va don mahsulotlariga hech qanday cheklovsiz narx qo'yilgani holda, masalan, birgina yog'ning narxi 1913-1916-yillar davomida 20 barobar ko'tarilgan bo'lsa-da, paxtaga narx qat'iy norma'da saqlanib qolayotganiga diqqatni qaratadi. "Moskva, – degan edi u, – bizning O'rta Osiyo paxta tolasiga nihoyat katta e'tibor berayotganini ko'rib turibmiz va bu e'tibor kelgusida ulkan falokatga olib keladi"¹².

Paxta yakka hokimligi Turkiston sanoatiga tamoman mustamlaka tusini berib, uni metropoliyaga raqobatchi emas, balki unga xizmat ko'rsatuvchi sohaga aylantirgan edi. Rus burjuaziyasi va shakllanib borayotgan Turkiston burjuaziyasi o'rtasidagi munosabatda ham shu holat o'z aksini topdi¹³.

Markazdagi kapitalistlar, chet el firmalari bilan hamkorlikda Turkiston boyliklarini o'zlashtirish ishida mahalliy burjuaziyani o'ziga vositachi qilib olgan edi. Rus burjuaziyasi Turkiston sanoati, qishloq xo'jaligi va yer osti boyliklarini o'zlashtirish ishiga nisbatan, kapitalistik munosabatlardan kelib chiqqan holda siyosat o'tkazar va ana shu masalada dvoryan-pomeshchiklar bilan to'qnashar edi. Rus podshosining saroyi, Davlat Kengashi va Ministrlar Qo'mitasida asosiy o'rinlarni egallagan dvoryan-pomeshchiklar esa Turkistonga nisbatan harbiy-feodal siyosat yuritib, ochiqdan-ochiq uning boyliklarini talash, yer-suvlarini tortib olish tarafdorlari edi. Har ikki sinf manfaatlarini muvofiqlashtirishga urinib, podsholik shu sababli mustamlakalarda «harbiy-feodal imperializm» siyosatini o'tkazib kelardi. Aleksandr II, Aleksandr III va Nikolay II hukumatlari tarkibidagi dvoryan-pomeshchiklarning ustun mavqei rus burjuaziyasining noroziligini uyg'otardi. Burjuaziya mustamlaka siyosatini yangi usullarda: kapital chiqarish, qarz berish, konsessiyalar olish, xom ashyo manbalarini qo'lga kiritish orqali amalga oshirishni istasa, dvoryanlar esa yerlarni tortib olib, rus pomeshchiklariga bo'lib berish, iqtisodiy bo'lmagan vositalar bilan patriarxal-feodal munosabatlarni saqlab qolish tarafdori edilar.

Shubhasiz, shu yillarda Turkiston o'lkasida ishchilar sinfi bilan barobar mahalliy burjuaziya ham shakllanib, o'z haq-huquqlarini taniy boshlagan edi. Rus va chet el kapitalistlari bilan hamkorlikdagi faoliyat davomida tijorat ilmini o'zlashtirgan mahalliy burjuaziya qadini

¹² Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B.466

¹³ Usmonov Q. O'zbekiston tarixi: Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006 – B.275

rostdlab, jahon bozoriga chiqishga ham ura boshlagandi. Andijonlik Mirkamil Mirmo‘minboy hoji o‘g‘li (1860–1919) ana shunday yirik o‘zbek burjuaziyasining yorqin namoyandasi edi. XX asr boshlarida uning shaxsiy boyligi 15 millionga yaqin bo‘lgan va u “Aka-uka Shlyusberg”, “Knop”, “Aka-uka Stentsum” firmalari, Moskva hisob banki, Rus–Xitoy banki, Rus–Osiyo banki va boshqa savdo-sotiq firmalari hamda banklari bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsata boshladi. Mirkamilboyning 5 ta paxta tozalash zavodi, 5 ming tanob yeri, 300 dan ortiq do‘konlari, 4 ta katta bog‘-uzumzori, 6 milliondan ortiq naqd puli, qimmatbaho qog‘ozlari, aksiyalari bo‘lgan.

Rus kapitalistlarining vositachi xizmatkori bo‘lib o‘z xalqini talashda qatnashgan, sudxo‘rlik qilgan va har xil yo‘llar bilan boyluk orttirgan boshqa tijoratchilardan farqli o‘laroq, u rus va chet el kapitalistlari bilan muvaffaqiyatli raqobat qila olgan, tadbirkor va ma‘rifatparvarligi bilan ham o‘z birodarlaridan keskin ajralib turgan. Rus mustamlakachilari uni yomon ko‘rishsa ham, u bilan hisoblashishga majbur bo‘lishgan.

Mirkamil Mirmo‘minboy hoji o‘g‘li va Ahmadbek hoji Temurbekov kabi andijonlik mulkdorlarning ilg‘or vakillari ijtimoiy-iqtisodiy adolatni intiqib kutayotgan ishchi, hunarmand va dehqonlar mafkurasini XX asr boshlarida o‘z faoliyatlarida namoyon eta boshladilar.

Xulosa. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida uning iqtisodiy hayoti tubdan o‘zgardi. O‘lka asta-sekin xom ashyo yetkazib beruvchi hududga va Rossiya sanoati uchun tayyor mahsulotlar sotiladigan bozorga aylantirildi. Paxtachilikning sun‘iy ravishda kengaytirilishi, temir yo‘llar qurilishi va savdo tizimining imperiya manfaatlariga moslashtirilishi natijasida mahalliy iqtisodiyot biryoqlama rivojlandi. Bu jarayon mahalliy hunarmandchilik va an‘anaviy ishlab chiqarish tarmoqlarining zaiflashishiga, aholining iqtisodiy jihatdan Rossiyaga qaram bo‘lib qolishiga olib keldi. Shu bilan birga, Turkiston bozoriga Rossiya va chet el sanoat mahsulotlarining keng kirib kelishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini pasaytirdi.

Shunga qaramay, ushbu davrda mahalliy burjuaziya ham shakllanib, iqtisodiy hayotda muhim rol o‘ynay boshladi. Ular orasida tadbirkorlik va ma‘rifatparvarlikni uyg‘unlashtirgan ilg‘or vakillar ham paydo bo‘ldi. Umuman olganda, Turkistonning Rossiya imperiyasi tarkibidagi iqtisodiy rivojlanishi mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qilgan bo‘lib, bu holat o‘lkaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga murakkab va ziddiyatli ta‘sir ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.
2. G‘afforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko‘chirilganlar. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Jo‘rayev N. Tarix falsafasi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1999.
4. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi: Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006.
5. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998.